

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"  
Toshkent kimyo-texnologiya  
instituti rektori

B.SH.Usmonov  
2025-yil 4-aprel

**"REGISTRATOR OFISI" TO'G'RISIDA  
NIZOM**

*Ushbu "Registrator ofisi" to'g'risida nizom 2025-yil 4-apreldagi 10-soni  
institut Kengashi qaroriga asosan tasdiqlangan*

Toshkent – 2025

## **“REGISTRATOR OFISI” TO‘G‘RISIDA NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1.1. Toshkent kimyo-texnologiya institutining (keyingi o‘rinlarda institut deb yuritiladi) “Registrator ofisi” (keyingi o‘rinlarda – Ofis deb yuritiladi) talabani tizimda shakllantirish, o‘quv jarayoni va talabalarga xizmat ko‘rsatish, akademik faoliyatni tashkil etish hamda ta’lim jarayonining ochiqligi va shaffofigini ta’minalash, tizimda byurokratik to‘sialar yuzaga kelishini oldini olish va tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish kabi vazifalarni amalga oshiruvchi institutning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

1.2. Ofis o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Hay’at qarorlari, buyruqlari, institut Nizomi, Kengashi qarorlari, institut rektori buyruqlari hamda mazkur Nizomga muvofiq olib boradi.

1.3. Ofis faoliyatiga institut rektori tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi. Ofis direktori, prorektorlar, fakultet, kafedra, akademik faoliyatni tashkil etish bo‘limi va boshqa ta’lim tuzilmalari bilan hamkorlikda ishlaydi.

1.4. Institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan mazkur nizom “Registrator ofisi” faoliyatida asosiy hujjat hisoblanadi.

### **II. “Registrator ofisi”ning lavozimlar kesimidagi tarkibiy tuzilmalari hamda xodimlar tarkibi**

#### **2.1. “Registrator ofisi”ning asosiy tarkibiy tuzilmasi quyidagilar hisoblanadi:**

Xizmat ko‘rsatish (front office) bo‘limi;

Ma’lumotlar bazasi (back office) bo‘limi;

“Registrator ofisi” xodimlari belgilangan tartibda institut rektorining buyrug‘i bilan tayinlanadi va vazifasidan ozod qilinadi.

Xodimlarga yuklatilgan ish majburiyatları lavozim yo‘riqnomasi bilan belgilanadi.

#### **2.2. “Registrator ofisi” xodimlari tarkibi:**

“Registrator ofisi” direktori;

Xizmat ko‘rsatish (front office) bo‘limi boshlig‘i;

Ma’lumotlar bazasi (back office) bo‘limi boshlig‘i;

Menejerlar.

Menejer lavozimiga ishlab chiqilgan me'yorlar asosida shtatlar belgilanadi.

### **III. “Registrarator ofisi” xodimlarining asosiy vazifalari**

#### **3.1. “Registrarator ofisi” direktorining lavozim vazifalari:**

Oliy ta'lif tashkilotlarining talabalar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish sohasidagi missiyasi hamda asosiy strategik yo'naliishlarini yuqori darajadagi ishonchhlilik, samaradorlik va mas'uliyat bilan amalga oshirish;

Ofis xodimlarining ishini tashkil qilish va to'g'ridan-to'g'ri ularni boshqarish;

Ofis xodimlarining lavozim yo'rinqnomalarini ishlab chiqish;

talabalarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini doimiy nazorat qilish;

Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va institut tomonidan o'rnatilgan talablar asosida o'quv jarayonini “HEMIS” axborot tizimi orqali to'g'ri tashkil etilishini hamda professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalarning bu jarayondagi faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

Ofis tomonidan yo'lga qo'yiladigan xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Ofisning yaqin va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;

talabalar, ota-onalarning taklif va shikoyatlarini ko'rib chiqish hamda nizoli holatlarni qonunchilikda belgilangan tartib asosida vakolat doirasida bartaraf etish;

Xizmat ko'rsatish (front office) va Ma'lumotlar bazasi (back office) bo'lim boshlig'i va menejerlarning mehnat faoliyatini tahlil qilish, baholash hamda rag'batlantirish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib borish.

“Registrarator ofisi” direktori lavozimiga magistr yoki mutaxassislik dasturlari bo'yicha olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega (ilmiy darajali yoki ilmiy unvonga ega shaxslarga ustuvorlik beriladi), ECTS (European Credit Transfer System) kredit-modul tizimini biladigan (xorijiy tillarni biladigan yoxud xorijiy OTTni tamomlagan yoki tajriba oshirganlarga ustunlik beriladi), kamida 3 yil oliy ta'lif boshqaruvi organlarida rahbarlik lavozimida ishlagan yoki OTTda ish stoji kamida 5 yil bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

#### **3.2. Xizmat ko'rsatish (front office) bo'lim boshlig'ining lavozim vazifalari:**

Xizmat ko'rsatish (front office) bo'limida ofis xodimlarining ishini tashkil qilish va to'g'ridan-to'g'ri ularni boshqarishda ofis direktoriga ko'maklashish;

Ofis direktori ish joyida bo'limganida uning lavozim vazifalarini

vaqtinchalik bajarish;

Xizmat ko'rsatish (front office) bo'limidagi sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

talabalar uchun o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat turlarini tizim orqali tashkil qilish;

talabalarga o'quv jarayonining tashkil etilishi, o'quv jarayoniga tegishli ma'lumotlar, talabalarning elektron platformalardan samarali foydalanishiga ko'maklashish;

talabalarga ilmiy va innovatsion faoliyat bo'yicha xizmat ko'rsatishni tashkil qilishga ko'maklashish;

Ofis tomonidan xalqaro aloqalar va akademik mobillik bo'yicha xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

Ofis tomonidan marketing hamda buxgalteriya xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yishda ko'maklashish;

professor-o'qituvchilar va talabalarga tizimga oid tegishli maslahatlar berish;

o'quv dasturlaridagi farqlarni bartaraf etish maqsadida qayta o'qishni tashkil qilish;

"HEMIS", "Moodle" "LMS" ta'lim platformalari va idoralararo yagona elektron hujjat aylanish "Ijro.gov.uz" tizimidan foydalanish va ijrosini ta'minlash;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan OTTning elektron ta'lim platformasi orqali talabalar harakatini tashkil qilish (o'qishini ko'chirish, akademik ta'tilga chiqarish va qaytarish, o'qishini tiklash);

Xizmat ko'rsatish (front office) bo'limi boshlig'i lavozimiga oliy ma'lumotli (magistr yoki mutaxassislik dasturlari bo'yicha olingen oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega shaxslarga ustuvorlik beriladi), ECTS (European Credit Transfer System) kredit-modul tizimini biladigan (xorijiy tillarni biladigan yoxud xorijiy OTTni tamomlagan yoki tajriba oshirganlarga ustunlik beriladi), kamida 2 yil oliy ta'lim boshqaruvi organlarida rahbarlik lavozimida ishlagan yoki OTTda ish staji kamida 3 yil bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

### **3.3. Ma'lumotlar bazasi (back office) bo'lim boshlig'ining lavozim vazifalari**

Ma'lumotlar bazasi (back office) bo'limida ofis xodimlarining ishini tashkil qilish va to'g'ridan-to'g'ri ularni boshqarishda ofis direktoriga ko'maklashish;

Ma'lumotlar bazasi (back office) bo'limi sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

talabalar tegishli bo‘lgan statistik ma’lumotlarni yuritish hamda “Hemis” axborot tizimiga to‘g‘ri kiritilishini nazorat qilish;

o‘quv jarayonida talabalar harakatini muvofiqlashtirish jarayonini tashkil qilish;

talabalar hujjatlarini yuritish va saqlash jarayonini muvofiqlashtirish:

“HEMIS”, “Moodle” “LMS” ta’lim platformalari va idoralararo yagona elektron hujjat aylanish “Ijro.gov.uz” tizimidan foydalanish va ijrosini ta’minlash;

Ofisda amalga oshirilgan ishlarning holatini, shuningdek, oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv jarayonining tashkil etilishi holatini tizim orqali baholab borish;

o‘quv jarayoni grafigiga asosan elektron ta’lim platformasida akademik faoliyat bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan yakuniy nazoratlar jadvali asosida o‘z vaqtida o‘tkazilishini tizim orqali nazorat qilish;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarga asosan OTTning elektron ta’lim platformasi orqali talabalar harakatini umumlashtirish va tahlil qilish (o‘qishini ko‘chirish, akademik ta’tilga chiqarish va qaytarish, o‘qishini tiklash);

o‘quv dasturlaridagi farqlarni bartaraf etish maqsadida qayta o‘qishni tashkil qilish;

Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va institut tomonidan o‘rnatilgan talablar asosida o‘quv jarayonini “HEMIS” axborot tizimi orqali to‘g‘ri tashkil etilishini hamda professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarning bu jarayondagi faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

Ma’lumotlar bazasi (back office) bo‘lim boshlig‘i lavozimiga oliy ma’lumotli (magistr yoki mutaxassislik dasturlari bo‘yicha olingan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga ega shaxslarga ustuvorlik beriladi), ECTS (European Credit Transfer System) kredit-modul tizimini biladigan (xorijiy tillarni biladigan yoxud xorijiy oliy ta’lim muassasasini tamomlagan yoki tajriba oshirganlarga ustunlik beriladi), kamida 2 yil oliy ta’lim boshqaruvi organlarida rahbarlik lavozimida ishlagan yoki oliy ta’lim tashkilotida ish staji 3 yil bo‘lgan shaxslar tayinlanadi.

### **3.4. Xizmat ko‘rsatish (front office) bo‘limi menejerlarining vazifalari:**

#### **3.4.1. Talabalarga xizmat ko‘rsatish sektori bo‘yicha:**

oliy ta’lim muassasasida mavjud turli xizmatlar va resurslar haqida ma’lumot berish;

dars jadvallari haqida ma’lumot taqdim etish;

joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar, imtihonlar va fanlarni qayta o‘qish to‘g‘risida talabalarga ma’lumot taqdim etish;

talabaga o‘zining GPA ko‘rsatkichi haqida ma’lumotnoma taqdim etish; sirtqi va masofaviy ta’lim shaklida o‘qiyotgan talabalar uchun chaqiruv qog‘ozini shakllantirish;

akademik ma’lumotnoma va transkript berish;

“HEMIS” axborot tizimida talaba guvohnomasini yaratish va taqdim etish; talabalarning “HEMIS” axborot tizimidagi parolini tiklash;

o‘qishga qabul va o‘qishni ko‘chirish yuzasidan konsultatsiya berish;

talabalarga tegishli barcha ariza va tushuntirish xatlarini belgilangan tartibda qabul qilib olish hamda tegishli tartibda rasmiylashtirish uchun “Ma’lumotlar bazasi” bo‘limiga taqdim etish;

qayta o‘qish uchun fan guruuhlariga ariza yuborishga yordam berish;

o‘qishni ko‘chirish va qayta tiklash uchun ariza yuborishga yordam berish;

oliy ta’lim muassasalariga ikkinchi ta’limga kirish uchun onlayn ariza topshirishga yordam berish;

oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga kirish uchun onlayn ariza topshirishga yordam berish;

tashqi xizmatlar: Ijtimoiy himoya reestri va ayollar daftarida turuvchi talabalar Yagona reestri bazasidan sinxronizatsiya qilib HEMIS platformasida ro‘yxat shakllantirish;

talabalarga tibbiy sug‘urta olish uchun yordam berish;

ijara subsidiyasi uchun ariza yozishga ko‘maklashish;

talabalarning yotoqxonalarga joylashish uchun ariza berishga ko‘maklashish;

ijara asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to‘lovining 50 foizi (bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmagan holda) Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan to‘lab berilishi uchun hujjatlarni rasmiylashtirish va tavsiyalar berishga ko‘maklashish.

### **3.4.2. Ilmiy va innovatsion faoliyat bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sektori bo‘yicha:**

grantlar va tanlovlardan haqida ma’lumot berish;

ilmiy konferensiyalar haqida ma’lumot berish;

innovatsion g‘oya va startaplarni ro‘yxatdan o‘tkazishga yordam berish;

talabalarga nomdor stipendiyalar haqida ma’lumot berish hamda ariza berishda ko‘maklashish;

ilmiy loyihalar to‘g‘risida konsultatsiya berish;

“Ustoz-shogird maktabi”ga a’zo bo‘lishga yordam berish;

oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkil etilayotgan ilmiy konferensiya, seminar va boshqa ilmiy-innovatsion tadbirlarni talabalar orasida ommalashtirish;

talabalarga ilmiy to‘garaklar haqida ma’lumot berish hamda to‘garaklarga

a'zo bo'lishlariga amaliy yordam ko'rsatish.

### **3.4.3. Xalqaro aloqalar va akademik mobillik bo'yicha xizmat ko'rsatish sektori bo'yicha:**

o'qish joyidan ingliz tilida ma'lumotnoma berish;

turli xalqaro grantlar va akademik mobillik dasturlari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish;

o'qishga qabul qilingan xorijiy talabalarni elektron tizimda ro'yxatga olish va fanlarga biriktirish;

xorijiy oliygohlarda tahsil olishda konsultatsiya berish;

xorijiy talabalar uchun viza olishlarida ko'maklashish;

xorijiy talabalarga to'lov-shartnomalarini taqdim etish;

xorijiy talabalarni O'zbekiston Respublikasida vaqtinchalik ro'yxatga qo'yishda ko'maklashish;

xorijiy talabalarni o'qishga qabul qilish bo'yicha konsultatsiya berish, ariza va talab etiladigan hujjatlarni ko'rib chiqish uchun qabul qilish;

xorijlik talabalarga oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonlari haqida ma'lumot berish;

qo'shma ta'lim dasturlari haqida ma'lumot berish va talabalar orasida targ'ibot qilish;

xorijda o'qish uchun "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiya tanlovi va xorijiy e'lonlar haqida ma'lumot berish;

xalqaro reytinglar (QS, THE, Green Metric)da o'rin egallagan oliy ta'lim muassasalari to'g'risida talabalarga ma'lumot berish;

xalqaro forumlarda imzolangan bitimlar va bayonlar haqida talabalarga ma'lumot berish;

xorijiy tillarni o'rganish kurslari haqida ma'lumot berish.

### **3.4.4. Buxgalteriya va marketing bo'yicha xizmat ko'rsatish sektori bo'yicha:**

talabalarga ishga joylashish borasida tavsiyalar berish;

potensial ish beruvchilar ro'yxatini shakllantirish va talabalarga yetkazish;

"HEMIS" axborot tizimiga ishga joylashgan bitiruvchilar haqida ma'lumot kiritish va olish;

bitiruvchilarni ishga taqsimlash va joylashishiga oid barcha zaruriy hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish va bitiruvchilarga topshirish;

to'lov-shartnomaga summasini aniqlash, hisoblash va taqdim etish, shuningdek, to'lov-shartnomasi olish uchun ariza berishga ko'maklashish;

akademik qarzdor talabalar uchun qayta o'zlashtirish bo'yicha to'lov miqdorlarini aniqlash va tasdiqlash, qayta o'qishga shartnomaga olish uchun ariza berishga ko'maklashish;

stipendiya to'g'risida ma'lumotnoma berish;

akademik qarzdor talabalar uchun tashkil etiladigan qayta o'zlashtirish o'quv mashg'ulotlariga jalg qilingan professor-o'qituvchilarining mehnatiga soatbay asosida haq to'lash miqdorlarini hisoblash, tasdiqlash va hisobini yuritish;

Xizmat ko'rsatish (front office) bo'limi menejeri lavozimiga oliy ma'lumotli, ECTS kredit-modul tizimini biladigan, (xorijiy tillarni biladigan, xorijiy oliy ta'lim muassasasini tamomlagan yoki tajriba oshirgan, shuningdek, magistr akademik darjasи, ilmiy daraja va unvonga ega bo'lganlarga ustunlik beriladi) va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan hamda oliy ta'lim tashkilotida ish stoji kamida 1 yil bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

### **3.5. Ma'lumotlar bazasi (back office) bo'limi menejerlarining vazifalari:**

#### **3.5.1. Statistik ma'lumotlarni yuritish sektori bo'yicha:**

talabalar, resurslar, shartnomalar, mashg'ulotlar va talabalarning o'zlashtirishi haqidagi turli xil statistik ma'lumotlarni taqdim etish;

talabalarning kursdan kursga qolishi, talabalar safidan chetlashtirilishi va akademik ta'tilga chiqishi bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

o'qishni ko'chirish va tiklashga tavsiya etilgan talabalarga oid statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

topshiriq va murojaatlarga asosan oliy ta'lim tashkiloti faoliyatiga doir statistik ma'lumotlarni taqdim etishga tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan Statistika agentligiga taqdim etiladigan hisobot shakllarini yuritish;

bitiruvchilar to'g'risida umumiylar ma'lumotlar bankini shakllantirish;

bitiruvchilar bandligini ta'minlash hamda ishga joylashganligi bo'yicha olib borilgan monitoring yuzasidan ma'lumotlarni olish, umumlashtirish va tahlil qilish;

"HEMIS" axborot tizimiga kiritilayotgan statistik ma'lumotlarning to'g'riliqini tahlil qilib borish.

Statistik ma'lumotlarni yuritish sektori menejerlariga kerakli ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va qayta ishslash uchun so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishda OTT tuzilmasidagi boshqa bo'linmalarning xodimlari yordam berishlari va hamkorlikda ishslashlari lozim.

#### **3.5.2. O'quv jarayonini muvofiqlashtirish sektori bo'yicha:**

talabalar tomonidan tanlov fanlar doirasida fanlarni tanlashini samarali tashkil etish uchun o'quv rejalarini shakllantirishda ishtirok etish;

akademik guruhlarni shakllantirish;

HEMIS platformasida fanlar bazasini shakllantirish;

HEMIS platformasida o'quv rejalarini yaratish va ularni tahrirlash;

HEMIS platformasida o'quv rejada mavjud fanlarni semestrlarga biriktirish;

qabul qilingan talabalarni elektron tizimda ro'yxatga olish va fanlarga biriktirish;

talabalarni tegishli fanlarga biriktirish;

talabalarni tizimga kiritish va tegishli guruhlarga biriktirish;

HEMIS platformasida tyutorga tegishli guruhlarni biriktirish;

dars jadvallarini hamda va nazorat jadvallarini yaratish hamda "HEMIS" axborot tizimida shakllantirish;

talabalarga qayta o'qishni tashkil qilish (fan guruhalrini yaratish, arizalarni ko'rib chiqish, dars jadvali va nazorat jadvallarini yaratish);

akademik qarzdor talabalarni aniqlash;

talabalar harakati (talabalar safidan chetlashtirish, kursda qoldirish, o'qishini ko'chirish, akademik ta'tilga chiqarish va qaytarish, o'qishini tiklash)ni muvofiqlashtirish va rasmiylashtirish;

"HEMIS" tizimi orqali talabalar davomatini nazorat qilish, kunlik davomat hisobotini olish va fanlar bo'yicha davomatni monitoring qilish;

talabalar davomatini amaldagi tartibga asosan HEMIS platformasida sababli va sababsiz holatga o'tkazish va sababli dars qoldirgan talabalarni ma'lumotlarini tegishli tartibda saqlash;

talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichini umumlashtirish va tahlil qilish;

talabalarni semestrda semestrga o'tkazish;

talabalarni kursdan kursga o'tkazish;

talabalarning GPA ballarini hisoblash;

talabalarning GPA ballarini hisoblashda kelib chiqqan nizolarni hal qilish;

talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari va boshqa hollar uchun stipendiya tayinlash bo'yicha komissiya bayonnomasi asosida hemis platformasidagi natijalarga ko'ra stipendiya buyrug'ini tayyorlash;

nogironligi mavjud talabalar hisobini yuritish, nogironlik muddatlari bo'yicha monitoring olib borish va stipendiyalar tayinlash;

kursdan qolgan, akademik ta'tildan qaytgan, o'qishini tiklagan talabalarning tavsiya etilgan guruhalarda o'zlashtiradigan kredit miqdorlaridan kelib chiqib hisoblangan to'lov-shartnoma summasi haqidagi ma'lumotlarni shakillantirish;

talabalar uchun tegishli fanlardan amaldagi tartibga asosan shaxsiy grafik yaratish;

talabalarning ma'lumot bazalarini shakllantirish va yangilab borish;

talabalarning kursdan kursga o'tkazish, kursdan kursga qolishi, talabalar

safidan chetlashtirilishi va akademik ta'tilga chiqishi bo'yicha buyruqlarni rasmiylashtirish;

o'qishni ko'chirish va tiklashga tavsiya etilgan talabalarni talabalar safiga qabul qilish bo'yicha buyruq rasmiylashtirish;

talabalarni bitirish to'g'risidagi buyruq loyihalarini shakllantirish;

o'qishni bitirgan talabalarni tegishli tartibda rasmiylashtirish.

### **3.5.3. Talabalar hujjatlarini yuritish va saqlash sektori bo'yicha:**

oliy ta'lim muassasasini tugatgan talabalar hujjatlarini to'plab yig'ma jildga tikish, ro'yxatga olish va arxivga qadar saqlash;

familiyasi o'zgargan, akademik ta'tilga chiqqan, yo'nalishni va fakultetni o'zgartirgan, kursda qoldirilgan, talabalar safidan chiqarilgan talabalarning buyruqlaridan ko'chirmalarni hamda buyruq chiqarilishiga asoslarni talabalar bazasiga joylashtirish;

o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish munosabati bilan talabalar safidan chetlatilgan talabalarni hamma kerakli hujjatlarini rasmiylashtirish va talabaga yetkazish;

"HEMIS" tizimi orqali o'qishni bitirgan talabalarga tegishli tartibda QR kodli diplom shakllantirish;

qat'iy hisobdagagi hujjatlar shakllarini (diplom blankalari, akademik sertifikatlar, diplomga ilova va boshqalar) taqdim etish;

qat'iy hisobdagagi blankalarini (diplom varaqalari, akademik guvohnomalar, diplom ilovasi va boshqalar) qabul qilish, saqlash va berishni tashkil etish;

bitiruvchilarga berilgan diplomlarning haqiqiyligini tasdiqlash maqsadida doimiy ravishda <https://OTT.mehnat.uz> va <http://d-arxiv.edu.uz> platformalari orqali tashkilot va muassasalar bilan yozishmalarni amalga oshirish, yo'qotilgan diplom va ilovalar o'rniga dublikat berish to'g'risidagi murojaatlarga javob qaytarish.

Ma'lumotlar bazasi (back office) bo'limi menejeri lavozimiga oliy ma'lumotli, ECTS kredit-modul tizimini biladigan, (xorijiy tillarni biladigan, xorijiy oliy ta'lim muassasasini tamomlagan yoki tajriba oshirgan, shuningdek, magistr akademik darajasi, ilmiy daraja va unvonga ega bo'lganlarga ustunlik beriladi) va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan hamda oliy ta'lim tashkilotida ish stoji kamida 1 yil bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

## **IV. Registrar ofisi tomonidan taqdim etiladigan xizmat turlari**

### **4.1. Akademik (o'quv) faoliyati bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar:**

QR kodli diplom shakllantirish;

akademik ma'lumotnomalar va transkript berish;

akademik mobillik asosida boshqa oliv ta'lim tashkilotiga ketgan talabalarining hujjatlarini tegishli tartibda rasmiylashtirish;

bitiruvchi talabalar uchun aylanma varaqasi yaratish;

diplom dublikatini olish uchun ariza yuborishga ko'maklashish;

imtihon natijalari bo'yicha apellyatsiya arizalarini qabul qilishni tashkil qilish;

imtihonlar ro'yxatini shakllantirish va talabaga taqdim etish;

oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga o'qishni ko'chirish va qayta tiklash uchun ariza yuborishga ko'maklashish;

oliy ta'lim tashkilotlariga ikkinchi ta'limga kirish uchun abituriyentlarga onlayn ariza topshirishiga ko'maklashish;

oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichiga kirish uchun abituriyentlarga onlayn ariza topshirishiga ko'maklashish;

oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun talabgorlarga ariza yuborishga ko'maklashish;

stipendiya va turli grant tanlovlarda ishtirok etish uchun ariza qabul qilish;

talabaga o'zining GPA ko'rsatkichi haqida ma'lumotnomasi taqdim etish;

talabalar davomatini amaldagi tartibga asosan sababli va sababsiz holatga o'tkazish;

talaba uzrli sabablarga ko'ra (*kasal, yaqin qarindoshining betobligi yoki vafoti, tug'ruq holati kabilari*) oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan talabalar uchun tegishli fanlardan shaxsiy grafik yaratish;

talabalar hujjatlarini qabul qilish va arxivga topshirish;

talabalarga imtihon natijalarini taqdim etish;

talabalarga qayta o'qish uchun ariza berishga ko'maklashish;

talabalarga turli xil ma'lumotnomasi (o'qish joyidan, harbiy bo'limdan v.b.)lar berish;

talabalarga o'quv varaqasi taqdim etish;

talabalarga fan resurslari bo'yicha ma'lumot taqdim etish;

talabalarni HEMIS platformasida keyingi kursga o'tkazish;

talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumot taqdim etish;

talabalarining parolini tiklash;

talabalarining tyutorlar tomonidan to'g'ri to'ldirilgan shaxsiy hamda o'quv ma'lumotlarini tahrirlash;

talabalik guvohnomasini tayyorlash va talabalar uchun taqdim etish;

talabani bir guruhdan ikkinchi guruhga ko'chirib o'tkazish;

tashqi xizmatlar: Ijtimoiy himoya reyestri va ayollar daftarida turuvchi talabalar yagona reestri bazasidan sinxronizatsiya qilib ro'yxat shakllantirish;

o‘qishini ko‘chirishga tavsiya etilgan, o‘qishga tiklangan yoki kursda qolgan talabalarning o‘quv rejalaridagi fanlar farqini aniqlash;  
o‘quv dasturlari haqida ma’lumot berish.

#### **4.2. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar:**

talabalarga yotoqxonalarga joylashish uchun ariza berishga ko‘maklashish;  
ijara subsidiyasi uchun ariza yozishga ko‘maklashish.

#### **4.3. Xalqaro aloqalar faoliyati bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar:**

talabalarga o‘qish joyidan ingliz tilida ma’lumotnoma berish;  
turli xalqaro grantlar va akademik mobillik dasturlari bo‘yicha  
ma’lumotlarni taqdim etish;

o‘qishga qabul qilingan xorijlik talabalarni elektron tizimda ro‘yxatga olish  
va fanlarga biriktirish;

xorijiy oliygohlarda tahsil olishda konsultatsiya berish;  
xorijiy talabalar uchun viza olishlarida ko‘maklashish;  
xorijlik talabalarga to‘lov-shartnomalarini taqdim etish;  
xorijlik talabalarni O‘zbekiston Respublikasida vaqtinchalik ro‘yxatga  
ro‘yxatga qo‘yishda ko‘maklashish;  
xorijlik talabalarini o‘qishga qabul qilish bo‘yicha konsultatsiya berish, ariza  
va talab etiladigan hujjatlarni ko‘rib chiqish uchun qabul qilish.

#### **4.4. Buxgalteriya va marketing bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar:**

qayta o‘qishga shartnoma berish;  
stipendiya to‘g‘risida ma’lumotnoma berish;  
hisob varag‘ini shakllantirib berish;  
talabalarga to‘lov-shartnomasi olish uchun ariza berishga ko‘maklashish;  
talabaning yotoqxonalarga joylashish shartnomasi bo‘yicha qarzdorligi va  
haqdorligi haqida ma’lumot berish;  
talabaning qayta o‘qish shartnomasi bo‘yicha qarzdorligi va haqdorligi  
haqida ma’lumot berish;  
talabaning to‘lov-shartnomasi bo‘yicha qarzdorligi va haqdorligi haqida  
ma’lumot berish;  
to‘lov-shartnoma summasi haqida ma’lumot berish;  
bitiruvchi talabalarga bo‘lg‘usi ish o‘rni to‘g‘risida kengroq axborotlar  
berish, mehnat yarmarkalarni o‘tkazishga ko‘maklashish.

#### **4.5. Ilmiy faoliyat bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar:**

grantlar va tanlovlardan haqida ma’lumot berish;  
ilmiy konferensiyalar haqida ma’lumot berish;  
innovatsion g‘oya va startaplarni ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish;

nomdor stipendiyalar haqida ma'lumot berish;  
ilmiy loyihalar to'g'risida konsultatsiya berish;  
ustoz-shogird maktabiga a'zo bo'lishga ko'maklashish.

#### **4.6. Ko'rsatilishi zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha xizmatlar:**

talabalarga tibbiy sug'urta olish uchun yordam berish;  
o'qishga qabul va o'qishni ko'chirish yuzasidan konsultatsiya berish;  
talabalarga ishga joylashish borasida tavsiyalar berish;  
talabalarga OTTda mavjud turli xizmatlar va resurslar haqida ma'lumot berish.

### **V. "Registrar ofisi"ning huquqlari va majburiyatları**

#### **5.1. "Registrar ofisi" o'z funksiyalarini bajarishda quyidagi huquqlarga ega:**

davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalarini va fanlar dasturlari yangilanayotganda ushbu me'yoriy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish;

har o'quv yilida kafedralar hamda tegishli dekanatlarga ishchi o'quv rejalarini hamda fanlarning o'quv va ishchi o'quv dasturlarini tayyorlashda ishtirok etish;

akademik faoliyatni tashkil etish bo'limidan, fakultetlar va kafedralardan malakaviy talablar, o'quv rejalar, fanlarning ishchi dasturlari, professor-o'qituvchilarining shaxsiy ish rejalarini so'rabsiz olish;

tayyorlanayotgan me'yoriy va boshqa hujjatlar bo'yicha kafedralardan ushbu hujjatlar loyihalariga takliflar va tavsiyalar so'rash;

kafedralarda tayyorlanayotgan darslik va o'quv qo'llanmalari hamda boshqa turdag'i akademik materiallar to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rabsiz olish;

kafedralardan professor-o'qituvchilarining yillik hisobotlarini olish;

dekanatlar, kafedralar va boshqa bo'limlardan o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni olish;

"Registrar ofisi" vakolatiga kiradigan masalalarni muhokama qilish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazish hamda seminarlar tashkil etish;

"Registrar ofisi" O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bolishi mumkin.

#### **5.2. "Registrar ofisi"ning o'z funksiyalarini bajarishdagi majburiyatları:**

"Registrar ofisi" faoliyatiga ta'alqli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati, Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat va vazirlik topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

“Registrar ofisi”ga yuklangan vazifalar va funksiyalarni samarali tashkil etilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning “Registrar ofisi” faoliyatiga ta’aluqli murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish;

“Registrar ofisi” faoliyatiga ta’aluqli me’yoriy hujjatlar loyihalarini (loyihalarga takliflarni) sifatli va o‘z vaqtida tayyorlash hamda rahbariyatga taqdim etish;

oliy ta’lim tashkilotida o‘quv jarayonini tasdiqlangan davlat ta’lim standartlari asosida tashkil qilish, ushbu jarayonga huquqiy-me’yoriy va boshqa hujjatlarning to‘la joriy etilishini ta’minlash.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

6.1. Ushbu nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

6.2. Mazkur nizom institut Kengashining majlisida muhokama qilingan va qabul qilingan hamda institut kasaba uyushma qo‘mitasi raisi, akademik faoliyat bo‘yicha prorektor, yoshlar bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo‘yicha prorektor, inson resurslari bo‘limi boshlig‘i va katta yuriskonsult bilan kelishilgan.